



O'ZBEKISTONDA MEDIATORLAR MALAKASI VA KASBIY TAYYORGARLIGINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Akbar Jo'rayev Abdushukur o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15914758>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2025

Accepted: 30th June 2025

Published: 15th July 2025

KEYWORDS

Mediatsiya, mediator, mediator malakasi, kasbiy tayyorgarlik, professional, noprofessional, mediatorlarni tayyorlash dasturi, sertifikatlash, professional mediatorlar reyestri, mediatsiya etikasi, mediator javobgarligi, mediatsiya markazi, mediatsiya treninglari, Mediatsiya qonuni

So'nggi yillarda O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish yo'nalishida qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning muhim tarkibiy qismiga aylangan institutlardan biri — bu mediatsiya institutidir. Nizolarni muqobil hal etish vositasi sifatida mediatsiya fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, sudlar ishini yengillashtirishda va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda o'zining dolzarbligi va samaradorligini isbotlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, mediatsiya "murakkab ijtimoiy nizolarni tinch yo'l bilan hal etishning samarali vositasi" hisoblanadi¹. Aynan shu sababli, 2018-yil 3-iyulda "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi orqali mediatsiya institutining huquqiy asoslari mustahkamlandi². Mazkur hujjat mediatorlik faoliyatini qonuniylashtiribgina qolmay, uni fuqarolik-huquqiy munosabatlarning tarkibiy qismiga aylantirdi.

Bugungi global huquqiy makonda mediatsiyaning ustuvorligi shundaki, u nizolarni sudgacha hal qilish, vaqt va xarajatlarni tejash, insoniylik tamoyillariga asoslangan dialog madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda respublikada mediatsiya orqali hal etilgan nizolar soni 21 foizga oshgan bo'lib, mediatorlar soni 4500 nafardan oshgan³. Bu O'zbekistonda mediatsiyaning amaliyotda tobora keng qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning qayd etishlaricha, "...nizolarni sudga yetkazmasdan, tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish – bu eng oqilona va insoniy yondashuv bo'lib, ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir"⁴.

¹ Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va islohot siyosati. Toshkent: O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 2018.

² O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Mediatsiya to'g'risida", 2018-yil 3-iyul, <https://lex.uz/acts/-3805227>

³ Adliya vazirligi statistik hisobotlari. "Mediatorlar soni va nizolarni hal etish ko'rsatkichlari", Toshkent, 2024.

⁴ Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O'zbekiston strategiyasi: Qonun ustuvorligi – taraqqiyot poydevori. Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2020.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda mediatorlar malakasi va kasbiy tayyorgarligining normativ-huquqiy asoslarini keng qamrovli tahlil qilinib, mediatsiya instituti va uning rivojlanish yo'nalishlari, mediatorlarning huquqiy maqomi, professional va noprofessional mediatorlar faoliyatining tartibga solinishi, shuningdek, mediatorlarni tayyorlash dasturi va sertifikatlash jarayonlari batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, mediatorlarning kasbiy ko'nikmalari, etikasi, javobgarligi va professional mediatorlar reyestri borasida to'xtatilib o'tilib, xalqaro tajriba va standartlar bilan solishtirish orqali O'zbekistonda mediatsiya institutining rivojlanish istiqbollari va zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasida 2018 yilda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun milliy huquqiy tizimda mediatsiya institutining huquqiy asoslarini yaratdi. Qonunning asosiy maqsadi mediatsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va mediatsiya institutining samarali faoliyatini ta'minlashdir. Qonun mediatsiyaning amal qilish sohasini keng belgilaydi. Unga fuqarolik, oilaviy, mehnat va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq nizolar kiradi. Shuningdek, sudgacha, sud va arbitraj jarayonlarida, hatto sud qarorlarini ijro etish bosqichida ham mediatsiyadan foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan.

Qonunning muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

Mediatsiya jarayonining asosiy bosqichlari batafsil tartibga solingan. Qonun mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuv tuzishdan tortib, mediativ kelishuv tuzish yoki mediatsiya jarayonini to'xtatishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Mediatorning huquqiy maqomini aniq belgilaydi. Qonun professional va noprofessional mediatorlar o'rtasidagi farqni ko'rsatib, ularning tayinlanishi, vazifalari va mas'uliyati masalalarini tartibga soladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-sonli "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mediatsiya institutini rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu qaror jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, sudlarda ish hajmini maqbullashtirish va nizolarni muqobil hal qilish imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilib qo'ydi. Qarorda mediatsiya institutining rolini oshirish, mediatorlarning malakasini mustahkamlash va ularni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarori bilan Toshkent mediatsiya markazi tashkil etilgan bo'lib, bu markaz professional mediatorlarni tayyorlash, mediatsiya tartib-taomillarini uslubiy ta'minlash va mediativ texnologiyalarni qo'llash masalalari bo'yicha maslahat berish vazifalarini bajaradi.

Mediatsiya institutining tashkiliy boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga yuklangan. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyruqlari mediatsiya sohasini batafsil tartibga soladi. Bu buyruqlar professional mediatorlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi, mediatorlarni tayyorlash dasturlari va sertifikatlash jarayonlarini belgilaydi. Shuningdek, vazirlik tomonidan Professional mediatorlar reyestri yuritiladi, bu reyestr Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan doimiy yangilab turiladi.

Qonunga ko'ra, O'zbekistonda mediatorlik faoliyati professional yoki noprofessional asosda amalga oshiriladi. Professional asosdagi mediator faoliyatini Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan va Professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxs amalga oshiradi. Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini 25 yoshga to'lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan shaxs amalga oshirishi mumkin.

Umuman olganda, mediatsiya institutining joriy etilishidan asosiy maqsadlardan biri sud tizimidagi ish yukining kamaytirilishi hisoblangan edi. Vaholanki, 2019-yilda o'sha paytdagi adliya vaziri Ruslanbek Davletovning kun.uz saytiga bergan ma'lumotlariga ko'ra, bir oyda bitta fuqarolik sudyasi kamida 120 ta ish ko'rib chiqqan, iqtisodiy sud sudyalari esa 110 tadan kam bo'lmagan ishlarni ko'rib chiqqan. Bu raqamlar sudlarning ish yuklamalari uchun haddan ziyod ko'p ekanligini ko'rsatishi va sud tizimining samaradorligini oshirish uchun ish yukini kamaytirish zarurati mavjudligini ta'kidlagan edi⁵. Darhaqiqat, xalqaro tajribada, masalan, Amerika va Yevropa davlatlarida nizolarni mediatsiya yo'li bilan sudgacha hal qilish umumiy ishlarning 80 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich fuqarolik ishlarida atigi

⁵ Davletov, Ruslanbek. "Ruslanbek Davletov: 'Sudlarning ish yuklamalarini kamaytirish kerak.'" *Kun.uz*, December 14, 2019. <https://kun.uz/news/2019/12/14/ruslanbek-davletov-sudlarning-ish-yuklamalarini-kamaytirish-kerak>

0,2 foiz, iqtisodiy ishlarda esa 1,8 foizni tashkil etmoqda. Bu esa mediatsiya institutini yanada rivojlantirish va keng joriy etish zaruratini ko'rsatadi⁶.

Bugungi kunda mediatsiya instituti ayni yuqoridagi muammoni hal qilishda muhim vosita sifatida ko'rilmogda. Mediatsiya orqali nizolarni sudgacha yoki sud jarayonida tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida, mediator yordamida hal qilish mumkin. Bu nafaqat sudlarga tushadigan ishlar sonini kamaytiradi, balki nizolarni tez va samarali hal etishga, tomonlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda mediator malakasi va kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar turli xil tizimlar va yondashuvlar asosida shakllantirilgan. Har bir mamlakat o'ziga xos talab va standartlarni belgilab qo'ygan bo'lsa-da, umumiy tendentsiyalar mediatorlarning yuqori malakali va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Misol uchun, Germaniyada 2012-yil 21-iyuldagi "Mediatsiyani qo'llab-quvvatlash va nizolarni suddan tashqari hal etishning boshqa tartiblari to'g'risida"gi qonunga muvofiq mediatorga alohida talablar qo'yiladi⁷. Mediator mediatsiya asoslari va uning tartib-qoidalari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lishi, mediatsiya muzokaralarni amalga oshirish va muloqot qilish texnikasiga hamda nizolarni boshqarish, mediatsiya huquqi, amaliy mashg'ulotlar va rolli o'yinlar texnikasi sohalarda bilimga ega bo'lishi lozim.

"Sertifikatlangan mediator" nomini ishlatish uchun mediatorlar kamida 120 soatlik treningdan o'tishlari va kamida bitta ishni bajarishlari, shu bilan birga individual nazorat (coaching) o'tkazishlari zarur. Sertifikatlanishdan so'ng mediator ikki yil davomida to'rtta hujjatlashtirilgan ishni bajarishi, kamida to'rtta individual nazorat seansini o'tkazishi va har to'rt yilda qirq soat qo'shimcha tayyorgarlik o'tkazishi talab qilinadi.

Avstriyada esa mediatorlarga qo'yiladigan talablarning aniq tizimi mavjud. Mediatorning Federal Adliya vazirligi reestriga kiritilishi istagiga bog'liq holda talablar belgilanadi⁸. Agar shaxs reestrda ro'yxatdan o'tmasdan mediatsiya xizmati ko'rsatish niyatida bo'lsa, u holda bu shaxsga hech qanday talab qo'yilmaydi.

Reestriga kirish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- 28 yoshdan katta bo'lish;
- Kasbiy malaka va fuqarolik javobgarligi sug'urtasiga ega bo'lish (kamida 400,000 yevro);
- Tegishli tayyorgarlikdan o'tish;
- Rasmiy yozma ariza bilan murojaat qilish.

2004-yil 1-maydagi "Fuqarolik ishlari bo'yicha mediatsiya to'g'risida" Federal qonunining talablariga muvofiq, mediator 28 yoshdan katta bo'lishi, kasbiy malaka va fuqarolik javobgarligi sug'urtasiga ega bo'lishi kerak.

O'zbekistonda ham mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kurslari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2019-yil 31-yanvardagi 54-mh-sonli buyrug'i bilan "Mediatorlarni tayyorlash dasturi" tasdiqlangan⁹. Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi mediatorlarni tayyorlash, ularda muzokaralar olib borish texnologiyasi, stress holati va kelishmovchiliklarni boshqarish haqida tayanch bilimlar berish, nizolarni hal qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir.

⁶ "Mediatsiya: sud organlariga ish yuklamasi kamaytiriladi." Inson Huquqlari, <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/mediatsiya-sud-organlariga-ish-yuklamasi-kamaytiriladi>.

⁷ Mediation in EU countries | Germany https://e-justice.europa.eu/topics/taking-legal-action/mediation/mediation-eu-countries_en/

⁸ The Austrian Law on Mediation in Civil Cases 2003 <https://www.arbiter.com.sg/pdf/laws/AustrianMediationAct2003.pdf>

⁹ O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida buyrug'i, 31.01.2019 <https://lex.uz/docs/-4185961>

Maxsus o'quv kurslari professional mediatorlarning o'zaro birlashuviga asoslangan Mediatsiya markazi, professional mediatorlar, hakamlilik sudlari va xalqaro arbitrajning o'zaro birlashuviga asoslangan Nizolarni muqobil usulda hal etish markazi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan tashkil etiladi.

Maxsus o'quv kurslarida ta'lim olish kunduzgi shaklda shartnoma asosida davomiyligi 36 soatdan 72 soatgacha bo'lgan o'quv kurslari bo'yicha amalga oshiriladi. Maxsus o'quv kurslarida o'qish uchun fuqarolar Markazlarga va Institutga ariza bilan bevosita o'zlari kelgan holda yoki elektron shaklda murojaat qiladilar.

Maxsus o'quv kurslaridagi o'quv jarayoni, qoida tariqasida, ko'pi bilan 15 nafargacha tinglovchilardan shakllantirilgan akademik guruhlarda tashkil etiladi. O'quv jarayonida dars mashg'ulotlari ma'ruza, amaliy mashg'ulot va trening shaklida tashkil etiladi.

Mediatorlarni tayyorlash dasturi quyidagi mavzularni qamrab olishi kerak: mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari; mediatorning kasbiy ko'nikmalari, etikasi va javobgarligi; muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida; mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari; mediatsiyada taraflar vakillarining ishtiroki va ularning maqomi; mediatsiya jarayoni; mediatsiya jarayonining natijasi va u bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish; oilaviy, mehnat, iqtisodiy va boshqa munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari.

O'quv jarayonida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy shakllari qo'llaniladi. Bularga muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash ("aqliy hujum" interfaol uslubini qo'llagan holda), huquq normalarini sharhlash, huquqni qo'llash hujjatlari loyihalarini tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari kiradi.

Yakuniy imtihon tinglovchining bilim va ko'nikmalarini ikki xil yo'l bilan baholashni o'z ichiga oladi: nazariy bilimlar og'zaki yoki yozma shaklda imtihon olish yo'li bilan; amaliy ko'nikmalar nizoli masalalarni mediatsiya jarayonlari imitatsiyasi natijalari bo'yicha baholanadi.

Maxsus o'quv kurslari tinglovchilarini baholashni tashkil etish va o'tkazish uchun Markazlar va Institutda uch nafardan iborat tarkibdagi komissiya shakllantiriladi. Tinglovchilar bilimi va o'zlashtirish darajasi 100 ballik tizimda baholanadi. Tinglovchi belgilangan maksimal ballning 56 foizidan kam bo'lmagan ball to'plaganda maxsus o'quv kurslarini o'zlashtirgan hisoblanadi. Maxsus o'quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga tegishli sertifikat beriladi. Kursni muvaffaqiyatli tugatib maxsus sertifikatni qo'lga kiritgan bitiruvchilar Professional mediatorlar reyestriga kiritilib, mustaqil mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. 2024-yil 1-yanvardan Adliya vazirligi tomonidan davlat xizmatlari markazlari va YIDXP orqali professional mediatorlar reyestriga kiritish xizmati ko'rsatilishini ta'minlash joriy etilgan¹⁰.

Hozirgi kunda O'zbekistonda mediatsiya institutining amaliyotga joriy etilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Respublikada bir qancha mediatorlar markazlari va tashkilotlari faoliyat yuritmoqda, mediatorlar ro'yxati shakllantirilgan va ularning malakasini oshirish bo'yicha muntazam seminar va treninglar tashkil etilmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, sudlarga kelib tushgan nizolarning muayyan qismi mediatsiya orqali hal etilgani kuzatilmoqda. Sudlar amaliyotida mediatsiya jarayonini qo'llash natijasida:

- ✓ Sudlarda ishlar soni kamaymoqda;
- ✓ Nizolar tez va kam xarajat bilan hal qilinmoqda;
- ✓ Tomonlar o'zaro kelishuv asosida murosaga qilishga intilmoqda;
- ✓ Jamiyatda huquqiy madaniyat va murosaga intilish kuchaymoqda.

¹⁰ "Professional mediatorlar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori" № 544, <https://lex.uz/docs/6635484>

Biroq, xalqaro amaliyot bilan solishtirganda, O'zbekistonda mediatsiya institutining qo'llanilish darajasi hali ham past bo'lib qolmoqda. Jumladan, mediatsiya jarayonining afzalliklari to'g'risida aholining xabardorligi yetarli emas, mediatorlar soni va malakasi hamon rivojlanish bosqichida, ba'zi hollarda sud organlari va boshqa davlat idoralari tomonidan mediatsiya institutiga nisbatan yetarli darajada e'tibor berilmayapti.

O'zbekistonda mediatsiya institutining rivojlanish tendensiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

Huquqiy bazani takomillashtirish – Mediatsiya institutini yanada rivojlantirish maqsadida qonunchilik doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Xususan, mediatsiya jarayonini soddalashtirish, mediatorlarning maqomini mustahkamlash, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish bo'yicha yangi normativ hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Xalqaro hamkorlik va tajribadan foydalanish – 2025-yil iyun oyida "Mediatsiya instituti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va sud amaliyoti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi¹¹. Konferensiyada Turkiya, Qirg'iziston, Ozarbayjon va Qozog'iston kabi mamlakatlarning yuqori malakali sudyalari, mediatorlar va huquqshunos olimlar faol ishtirok etdi. Bu xalqaro tajribani o'rganish va milliy mediatsiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Sud tizimi bilan integratsiya – Mediatsiya institutini sud tizimi bilan integratsiyalash jarayoni kuchaymoqda. Sudlar tomonidan nizolarni mediatsiya orqali hal qilishga yo'naltirish amaliyoti kengaymoqda. Xususan, xususiylashtirish jarayoniga oid nizolar yuzaga kelsa, davlat bu nizoni birinchi navbatda mediatsiya tartibida hal qilishga harakat qilmoqda¹².

Qisqacha qilib aytganda, O'zbekistonda mediatsiya institutining amaliyotdagi joriy holati sezilarli darajada takomillashgan. Ya'ni, mediatsiya institutining normativ-huquqiy asoslari zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, bu soha mamlakatda nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida jadal rivojlanmoqda. 2018-yilda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mediatorlar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonun bilan bir qatorda, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligining yo'riqnomalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mediatsiya jarayonlarini amalga oshirish, mediatorlarning malakasini oshirish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Bu hujjatlar mediatsiya sohasida yagona yondashuvni shakllantirish, shaffoflik va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mediatorlarni tayyorlash tizimi uzluksizlik va sifat tamoyillari asosida qurilgan. Mediatorlar uchun maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan birgalikda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. O'quv dasturlari xalqaro tajribaga asoslanib, mediatorlik faoliyatida zarur bo'lgan psixologik, huquqiy va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Mediatorlarning malakasi doimiy ravishda oshiriladi, bu esa ularning professional darajasini xalqaro standartlarga mos saqlash imkonini beradi. Masalan, mediatorlar uchun treninglar, seminarlar va xalqaro konferensiyalar tashkil etilib, ularda nizo yechishning ilg'or usullari o'rganiladi va tajriba almashinadi.

Professional va noprofessional mediatorlar faoliyati qonuniy jihatdan aniq chegaralangan. Professional mediatorlar maxsus sertifikatlash jarayonidan o'tadi va ularning faoliyati qat'iy tartibga solinadi. Noprofessional mediatorlar esa qonunda belgilangan doirada faoliyat yuritadi va ularning huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatilgan. Har ikkala toifa mediatorlarning javobgarligi qonuniy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, bu mediatorlik jarayonining adolatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Mediatorlarning axloqiy kodeksi va

¹¹ "Mediatsiya instituti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va sud amaliyoti." O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi (UZA), https://uza.uz/oz/posts/mediatsiya-instituti-rivojlanishining-zamonaviy-tendensiyalari-va-sud-amaliyoti_726614

¹² O'taxonov, Bahodir. "Davlat xususiylashtirish nizolarida sudlashmoqchi emas. Mediatsiya instituti kengayadi." Kun.uz, May 18, 2024. <https://kun.uz/45285599>

faoliyat prinsiplari ham qonunda mustahkamlangan bo'lib, bu ularning xolisligi va mustaqilligini kafolatlaydi.

Mediatsiya institutining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasida sud tizimiga tushadigan yukni kamaytirish, nizolarni tez va samarali hal etish, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishda muqobil yechimlar taklif etishga xizmat qilmoqda. Mediatsiya sohasining kelajakdagi rivojlanishi xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, mediatorlarning kasbiy malakasini yanada oshirish, shuningdek, aholining mediatsiya haqidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy ekspertlar bilan tajriba almashish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali mediatsiya instituti yanada mustahkamlanadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida huquqiy madaniyatni rivojlantirish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish amaliyotini kengaytirish va adliya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida mediatsiya sohasi qonuniy, professional va institutsional jihatdan mustahkam asosga ega bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatda huquqiy islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida davom etmoqda. Mediatorlarning malakasini oshirish va xalqaro tajribani joriy etish orqali ushbu soha yanada rivojlanib, jamiyatda adolatli va samarali nizo yechish mexanizmi sifatida o'z o'rnini mustahkamlab boradi.

Biroq, xalqaro amaliyot bilan solishtirganda, mediatsiya institutining qo'llanilish darajasi hali ham past bo'lib qolmoqda. Shuningdek, rivojlanish tendensiyalari ijobiy bo'lib, huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, sud tizimi bilan integratsiyani chuqurlashtirish yo'nalishida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Mediatsiya institutining keljagi istiqbolli bo'lib, nizolarni hal qilishning samarali, tezkor va konstruktiv usuli sifatida jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlashi kutilmoqda.

Keyingi bosqichda aholi o'rtasida huquqiy savdolikni oshirish, mediatorlar sonini ko'paytirish va malakasini yuksaltirish, mediativ kelishuvlarning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali bu institutni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mediatsiya instituti O'zbekiston jamiyatida nizolarni hal qilishning zamonaviy, samarali va insonparvar vositasi sifatida o'z o'rnini mustahkamlashi shubhasiz.

INNOVATIVE
ACADEMY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-sonli Qonuni. 2018-yil 3-iyul. <https://lex.uz/docs/-3805227/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-sonli "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 07/20/4754/0771-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4859436/>
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2019-yil 31-yanvardagi 54-mh-sonli "Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2019-y., 10/19/3134/2554-son. <https://lex.uz/docs/-4185961/>
4. "Professional mediatorlar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori" № 544, <https://lex.uz/docs/6635484/>
5. "Shavkat Mirziyoyev Mediatsiya to'g'risidagi qonunni imzoladi." Sputnik.uz, 2018-yil 4-iyul. <https://oz.sputniknews.uz/20180704/Shavkat-Mirziyoev-Mediatsiya-trisidagi-qonunni-imzoladi-8761063.html/>
6. "Toshkentda yana bir markaz o'z faoliyatini boshladi." Xabar.uz, 2020-yil 30-sentyabr. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/toshkentda-yana-bir-markaz-oz-faol/>
7. Davletov, Ruslanbek. "Sudlarning ish yuklamalarini kamaytirish kerak." Kun.uz, 2019-yil 14-dekabr. <https://kun.uz/58492373/>
8. Mediation in EU countries | Germany https://e-justice.europa.eu/topics/taking-legal-action/mediation/mediation-eu-countries_en/
9. The Austrian Law on Mediation in Civil Cases 2003 <https://www.arbiter.com.sg/pdf/laws/AustrianMediationAct2003.pdf/>

INNOVATIVE
ACADEMY